

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK:338:334.75:6II2.15.7(575.1)

TUXTAYEVA MUYASSAR SHOVKAT QIZI

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLINING IQTISODIY
SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA TADBIRKORLIK QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH**

**70310102- “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi
bo‘yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: (DSc) prof.v.b A.A.Yadgarov

TOSHKENT – 2024

Magistrlik dissertatsiyasi “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan. 6 -sonli bayonnoma «22» aprel 2024 yil.

Ilmiy rahbar: (DSc) prof.v.b A.A.Yadgarov




imzo

14.05.2024

sana

Magistr: M.Tuxtayeva



imzo

14.05.2024

sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2024-yil “14” 05

№ 1/03 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Yashil iqtisodiyot” kafedrası

mudiri, professor. I.Xotamov



“07” may 2024 yil

Himoya 2024 yil “15” 05 soat 14⁰⁰ da “Texnopark” mas’uliyati cheklangan jamiyatda bo‘lib o‘tadi.

Annotatsiya

Iqtisodiyotning muammosi hisoblangan ishsizlik darajasini kamaytiruvchi, davlatning jahon bozoriga kirish sur'atini tezlashtiruvchi, innovatsiya, ish o'rnini yaratish va iqtisodiy o'sishning asosiy manbai, yuksalishning eng kutilgan belgisi hisoblangan tadbirkorlikning taraqqiyoti - jahon miqyosida ilmiy izlanuvchilar orasida keng munozaralar mavzusiga aylangan inson kapitali, kelajak kasblari, zamon kompetensiyalari va doimiy ahamiyatga ega bo'lgan bandlik bilan bog'liq muammolarning istiqbolli yechimidir.

Tadbirkorlik bugungi kundagi jadal raqamlashuv, robotizatsiya va 4-sanoat inqilobi boisidan yuzaga kelishi kutilgan an'anaviy kasblarning yo'qolishi, yangi kasblarning paydo bo'lishi bilan bog'liq muammolar natijasida yuzaga keluvchi insonning bugungi hamda kelajakdagi farovonligiga tahdid solish darajasini pasaytirishda xizmat qiladi. Binobarin, tadbirkorlik-2030-yilga qadar 600 millionga yaqin yangi ish o'rnini yaratish muammosini hal qilishning umidli yechimi sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu yuzadan, dissertatsiyada aholining iqtisodiy savodxonlik darajasining tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishdagi o'rni hamda ta'sir doirasini tahlil qilish bilan bir qatorda tadbirkorlik qobiliyatini oshirish va aholini tadbirkorlikka jalb qilishda mavjud mexanizmni takomillashtirish yo'llari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, iqtisodiy savod, tadbirkorlik qobiliyati, tadbirkorlikning tashkil topish bosqichlari, tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar, endogen omil, ekzogen omil, ishbilarmonlik muhiti, ongli tavakkalchilik.

Abstract

Being considered as the most expected sign of growth and economic prosperity which reduces the level of unemployment, accelerates the state's entry into the world market, known as the main source of creating innovation, work places, entrepreneurial development – is the most promising solution to the issues as human capital, future occupations, contemporary competencies and employment possessing everlasting significance has already on a global level become the subject of wide discussions among scientific researchers.

Entrepreneurship serves to reduce the level of current and future threats to peoples' life quality expected to occur due to problems closely linked with the loss of traditional professions as well as emergence of new professions which are the entailed consequences of robotization, rapid digitization and 4th industrial revolution. Therefore, entrepreneurship is recognized as a promising solution to the problem of creating about 600 million new jobs by 2030.

Therefore, in the dissertation, along with the analysis of the role and influence of the level of economic literacy of the population in the development of entrepreneurial ability, ways of improving the existing mechanism for increasing the entrepreneurial ability and attracting the population to entrepreneurial activity are studied.

Key words: Entrepreneurship, economic literacy, entrepreneurial ability, stages of entrepreneurship formation, factors influencing the development of entrepreneurship, endogenous factor, exogenous factor, business environment, conscious risk taking.

MUNDARIJA

I BOB. KIRISH.....	6
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	6
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	9
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti.....	10
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	11
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	11
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	13
2.1. Adabiy manbalarda keltirilgan tadqiqotlar natijalari.....	13
2.2. Tadqiqot gipotezasi.....	32
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....	38
3.1. Ma'lumotlar manbalari.....	38
3.2. Tadqiqot dizayni.....	39
3.3. Tadqiqotda qo'llanilgan uslublar.....	39
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	40
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	40
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	42
IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALAR.....	43
4.1. Aholining tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishda iqtisodiy savodxonlikning roli.....	43
4.2. Aholi iqtisodiy savodini oshirish va tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishda mavjud imkoniyatlardan foydalanish holati tahlili (Yoshlar –kelajagimiz jamg'armasi misolida).....	49
4.3. Aholi tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi.....	56
4.4. Mamlakatimizda aholi tadbirkorlik qobiliyatini oshirishning istiqbolli yo'llari.....	64
V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR.....	73
5.1. Tadqiqotning asosiy ilmiy - amaliy yangiligi va natijalari.....	73
5.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar.....	74
5.3. Kelgusi tadqiqotchilar uchun takliflar.....	75
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	76

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 29-maqsadida hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish bilan bir qatorda tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma‘lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish vazifalari belgilangan¹.

Ta‘kidlash joizki, mamlakatimizda aholining tadbirkorlik faoliyati, jumladan muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyatining asosi bo‘lgan iqtisodiy savodxonlik va tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan islohatlar so‘nggi yillarda tobora jadallashib bormoqda. Bu islohatlar negizida tadbirkorlik subyektlarining yalpi hududiy mahsulot va O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga kelib tushgan tushumlardagi ulushi, tadbirkorlik subyektlari tomonidan aholini ish bilan ta‘minlanganlik darajasi, innovatsion xizmat hamda mahsulot turlarini yaratishi, raqobat muhitini shakllantirishi yotadi.

Aholida iqtisodiy ong va tadbirkorlik qobiliyati mavjudligi bevosita faoliyatdagi samaradorlik bilan zanjirning ikki qismidek chambarchas bog‘liq ekanligini 2020-yil Vazirlar Mahkamasining 8-sonli qarori bilan ishlab chiqilgan tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasini baholash uchun mo‘ljallangan Business indicator avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizimi “Tadbirkorlik subyektlari uchun soliq, moliya, buxgalteriya va boshqa turdagi o‘quv-seminarlar tashkillashtirilganligi”ni alohida baholash ko‘rsatkichi sifatida qabul qilinishida ko‘rishimiz mumkin². Aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan PQ-4862da³ tadbirkorlikni davlat tomonidan

¹2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60. 28.01.2022

²O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.01.2020 yildagi 8-son Respublika hududlarida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasiga baho berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4862-son